



INNOVATIVE WORLD  
Ilmiy tadqiqotlar markazi

# YANGI RENESSANS

ILMIY JURNALI

2026/3



+998335668868



[www.innoworld.net](http://www.innoworld.net)

Google Scholar



zenodo





2026

**YANGI RENESSANS**

ILMIY JURNALI

3-JILD 3-SON



**YANGI RENESSANS**

ILMIY JURNALI  
**TO'PLAMI**

3 - JILD, 3 - SON  
2026

Google Scholar



zenodo



ADVANCED SCIENCE INDEX



Academic  
Resource  
Index  
ResearchBib

[www.innoworld.net](http://www.innoworld.net)

O'ZBEKISTON-2026



## **O‘ZBEKISTONNING ISLOM HAMKORLIK TASHKILOTI BILAN MUNOSABATLARI**

**Abduxamidov Muxammadjon Abduxalim o‘g‘li**

FarDU, Falsafa kafedrası dotsenti

Islomshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori

O‘zbekistonning xalqaro hamjamiyat sari kirib kelishi, Islom hamkorlik tashkilotining deyarli barcha a‘zolari tomonidan tan olindi va diplomatik munosabatlar o‘rnatildi.

Ilmiy izlanish va tahlillar natijasida O‘zbekiston va Islom hamkorlik tashkiloti o‘rtasidagi hamkorlik aloqalari – ijtimoiy integratsiyalashuv jarayoni ikki bosqichda rivojlanganini kuzatish mumkin:

Birinchi bosqich 1995-yildan 2015-yillarni o‘z ichiga olib, xalqaro huquq va xalqaro munosabatlar sub‘yekti sifatida Islom hamkorlik tashkiloti bilan do‘stona munosabatlar shakllangan;

Ikkinchi bosqich 2016-yildan keyingi davrni qamrab olib, ichki barqarorlik sharoitida O‘zbekiston dunyoviy davlat sifatida, Islom hamkorlik tashkiloti va a‘zo davlatlar bilan ko‘p tomonlama do‘stona munosabatlarni yanada izchil rivojlantirdi.

Ushbu jarayonlar quyidagi voqeliklar bilan ham xarakterlanadi.

O‘zbekiston hamda Islom hamkorlik tashkiloti hamkorligining birinchi bosqichi 1995 yil oktabr oyida AQShning Nyu-York shahrida bo‘lib o‘tgan Islom hamkorlik tashkiloti a‘zo davlatlar Tashqi ishlar vazirlarining navbatdan tashqari uchrashuvida O‘zbekiston Respublikasining ushbu tashkilotga kuzatuvchi sifatida qabul qilinishi bilan boshlandi. Oradan bir yil o‘tib, O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimovning maktubi asosida 1996-yil 2-oktabrda Islom hamkorlik tashkilotiga a‘zo davlatlar Tashqi ishlar vazirlarining har yili o‘tkaziladigan navbatdagi muvofiqlashtirish sessiyasida O‘zbekiston Respublikasi mazkur tashkilotning teng huquqli a‘zosiga aylandi.

Ixtisoslashtirilgan tashkilotlardan hisoblangan Islom taraqqiyot banki musulmon mamlakatlariga davlatlar o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlashda, jahon miqyosida islom madaniy merosini himoya qilishda samarali faoliyat yurituvchi tashkilot hisoblanadi. «Islom taraqqiyot banki va O‘zbekiston o‘rtasidagi aloqalar 1992-yilda infratuzilmalar, fan va texnologiyalarni rivojlantirish uchun 1,4 mln. doll. 1998-yil 293 ming doll. 2000-yilda 255 ming doll. miqdorida grant asosidagi moliyaviy ko‘mak ko‘rsatish orqali vujudga kelgan». 2003-yildan boshlab O‘zbekiston – Islom taraqqiyot bankining to‘la huquqli a‘zosiga aylandi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri boshchiligidagi rasmiy delegatsiya 2005-yil dekabr oyida Makka shahrida o‘tkazilgan Islom hamkorlik tashkilotining navbatdan tashqari 3 sammitida ishtirok etib, yuzaga kelayotgan global geosiyosiy vaziyat sharoitida islom mamlakatlarini hamjihatlikka chorlovchi tashkilotning yangi strategiyasini ishlab chiqish hamda tashkilotni zamonaviy xavf-hatar va tahdidlarga qarshi kurasha oladigan samarali institutga aylantirish





zaruriyatini ilgari surgan edi. Tadbir davomida O'zbekiston xalqaro tashkilot doirasida a'zo davlatlarning yagona pozitsiyasini ishlab chiqish taklifini kiritdi va ushbu taklif musulmon dunyosi davlatlarining aksariyati tomonidan qo'llab-quvvatlanib, keyinchalik tashkilotning 10 yillik dasturi matnining tegishli qismiga alohida kengaytirilgan band sifatida kiritildi. Sammit yakunida Makka deklaratsiyasi va yakuniy Kommyunikelar qabul qilinib, unda musulmon davlatlarining birdamlikni mustahkamlashga, yangi xavf-xatar va tahdidlarga qarshi umumiy pozitsiya ishlab chiqishga intilishlari, shuningdek bag'rikeng va ma'rifiy Islom g'oyalarini targ'ib etish zarurati o'z aksini topgan.

Qolaversa, Islom hamkorlik tashkilotining 2008-yil 13-14-mart Dakkar shahridagi 11-sammitda O'zbekiston Bosh vaziri o'rinbosari boshchiligidagi delegatsiya, 2013-yil 2-7-fevral Qohiradagi 12-sammitda O'zbekistonning Islom hamkorlik tashkiloti doimiy vakili boshchiligidagi delegatsiya ishtirok etdi.

2014 yil 18-19 iyunda Jidda shahrida bo'lib o'tgan Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashining 41 sessiyasida O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirining birinchi o'rinbosari boshchiligidagi delegatsiya 2016 yil Tashqi ishlar vazirlari kengashining 43 sessiyasini O'zbekistonda o'tkazishga tayyor ekanligini e'lon qildi.

2015 yil 27-28 mayda Al-Quvaytda bo'lib o'tgan TIVKning 42 sessiyasida mazkur organing navbatdagi sessiyasini 2016 yil O'zbekistonda o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilinishi O'zbekiston hamda Islom hamkorlik tashkiloti o'rtasidagi hamkorlikning yangi bosqichini boshlab berdi. O'zaro tashriflar va rasmiy aloqalar haqida shuni aytish mumkinki, Islom hamkorlik tashkiloti vakillari O'zbekistonda bo'lib o'tgan Parlament hamda Prezident saylovlarida xalqaro kuzatuvchi sifatida faol qatnashishgan.

Tahlillar natijasida hamkorlikning birinchi bosqichi O'zbekiston Islom hamkorlik tashkiloti forumlarida mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash borasidagi tashabbuslarni ilgari surganligi hamda o'zaro aloqalar amalga oshirilib, ma'lum darajada bir qator ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal qilinganligi kuzatiladi.

O'zbekiston hamda Islom hamkorlik tashkiloti hamkorligining ikkinchi bosqichida o'zaro aloqalar izchillashib, faol munosabatlar yo'lga qo'yildi. 2016 yil 14-15 aprel Istanbuldagi 13 sammitda O'zbekiston Oliy Majlis Senati raisi boshchiligidagi delegatsiya ishtirok etdi. TIVKning 43 sessiyasiga tayyorgarlik ko'rish doirasida O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vaziri A.Kamilov boshchiligidagi delegatsiya 2016 yil 23-28 iyul kunlari Jidda shahrida tashkilotga a'zo dalatlarning yuqori mansabdor shaxslari hamda Iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy masalalar bo'yicha Islom komissiyasi majlislarida ishtirok etdi. O'zbekiston delegatsiyasi raislik qilgan mazkur tadbirlar chog'ida Toshkentdagi TIVK sessiyasida tasdiqlash uchun kiritilgan Islom hamkorlik tashkilotining asosiy faoliyat yo'nalishlari bo'yicha rezolyusiya loyihalari ko'rib chiqildi va ma'qullandi.





Hamkorlikning ikkinchi bosqichida Islom hamkorlik tashkilotining yangi Ustavi 2015 yil 14 dekabrda imzolaniib 2016 yil aprel oyida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati tomonidan ratifikatsiya qilindi.

Islom hamkorlik tashkiloti va O‘zbekiston o‘rtasidagi hamkorlik rivojining ayrim omillarini alohida ta’kidlash mumkin, 2016 yil 18-19 oktyabrda «Ta’lim va ma’rifat – tinchlik va bunyodkorlik sari yo‘l» shiori ostida Toshkent shahrida TIVKning 43 sessiyasining o‘tkazilishi munosabatlar tizimining yangi davrini boshlab berdi. Ushbu sessiyada Shavkat Mirziyoev rasman chiqish qilib tashkilotni xalqaro maydonda faol bo‘lishga, terrorizmga qarshi kurashishda yakdil bo‘lishga, xalqaro maydondagi masalalarni birgalikda hal qilish uchun yanada jipslashishga, Yaqin Sharqda yadro qurolidan xoli hududni barpo etish Islom Hamkorlik Tashkilotining ustuvor vazifalaridan biri bo‘lishi lozimligi, eng muhimi islom dinining ma’rifiy va insonparvarlik rolini keng targ‘ib qilishga chaqirdi.

Xalqaro maydonda O‘zbekistonni Islom hamkorlik tashkiloti TIVKga raislik vazifasini rasman qabul qilishi uning tashqi siyosiy va diplomatik yutuqlaridan biri sifatida baholandi. Tadbirda tashkilotning 52 a’zo davlat delegatsiyasi (26 ta vazir darajasida), 4 ta kuzatuvchi mamlakati, 22 ta maxsus organlar, bo‘linmalar va qo‘shimcha tashkilotlari, 4 ta xalqaro va mintaqaviy tashkilot vakillari, xorijiy mamlakatlarning Islom hamkorlik tashkilotidagi maxsus elchilarining 5 nafari hamda taklif qilingan mehmonlar ishtirok etdi. Ushbu anjumanda sessiya kun tartibidan o‘rin olgan masalalar yuzasidan 118 ta rezolyusiya qabul qilindi.

Mazkur sessiya chog‘ida O‘zbekiston Prezidenti Samarqanddagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini hamda Toshkent islom universiteti (O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi) tarkibida Ta’lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha islom tashkilotining (ISESCO) maxsus kafedrasini tashkil etish tashabbusini ilgari surdi. Tashabbuslar Tashqi ishlar vazirlari kengashining 43 va 44 sessiyasida IHTga a’zo davlatlar tomonidan qo‘llab-quvvatlandi hamda maxsus rezolyusiyalar qabul qilindi.

Alohida qayd qilish lozimki, Islom hamkorlik tashkiloti TIVK 43 sessiyasining muhim hujjati sanaluvchi Toshkent deklaratsiyasi qabul qilinib, unda kun tartibidagi siyosiy, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar sohalar bo‘yicha 2016-2017 yillar davomida O‘zbekiston raisligining ustuvor yo‘nalishlari o‘z aksini topgan edi. O‘zbekiston raisligi davrida tashkilotning 23 ta tadbiri o‘tkazildi va bu holat Tashkilot faoliyati rivojlanishiga juda katta ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

O‘zbekiston Islom hamkorlik tashkilotiga musulmon davlatlarini birlashtiruvchi umume’tirof etilgan forum sifatida qaraydi. Islom hamkorlik tashkiloti iqtisodiy, madaniy va boshqa masalalar bo‘yicha manfaatdor tomonlar hamkorlik o‘rnatishi mumkin bo‘lgan muloqat platformasi hisoblanib, hozirgi kunda muayyan siyosiy va huquqiy hodisa (fenomen) sifatida nafaqat islom olami balki butun dunyo rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Islom hamkorlik tashkiloti TIVK 2018 yil 10-11 iyulda Abidjan shahrida bo‘lib o‘tgan 44-sessiyasida O‘zbekiston raislikni rasman Kot-d’ Ivuarga topshirdi,





unda O‘zbekistonning islomiy hamkorlikni rivojlantirishdagi faoliyatiga yuqori baho berilgan. Islom hamkorlik tashkiloti a‘zo davlatlarining intellektual, ilmiy-texnikaviy salohiyatini mustahkamlash va yanada rivojlantirish O‘zbekistonning mazkur tashkilot Tashqi ishlar vazirlari kengashiga raisligi davridagi (2016/2017 yy) ustuvorligidan biri bo‘ldi.

Musulmon olamida madaniy-gumanitar kooperatsiyaning rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash belgisi sifatida davlat rahbari Shavkat Mirziyoev 2017 yil 9-10 sentyabr Qozog‘istonda Islom hamkorlik tashkilotining Fan va texnologiyalar bo‘yicha birinchi sammitida ishtirok etib, tashkilotga a‘zo davlatlar tomonidan ilm-fanga yetarlicha e‘tibor berilmayotganligi yuzasidan fikr bildirib, bu boradagi faoliyatni yanada kengaytirish lozimligi keltirib o‘tilgan. Sammit yakunlari bo‘yicha Ostona deklaratsiyasi va 2026 yilgacha ilm-fan, texnologiya hamda innovatsiyalarni rivojlantirish bo‘yicha Dasturiy hujjat qabul qilindi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, bugungi kunda O‘zbekistonning Islom hamkorlik tashkiloti bilan fan, texnologiya va ta‘lim sohasidagi hamkorligi sifat jihatidan yangi darajaga chiqqanini alohida e‘tirof etib, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi tarkibida Ta‘lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha islom tashkilotining (ISESCO) maxsus kafedrasini tashkil etilganligi, 2019 yil 7-8 oktyabrda Islom hamkorlik tashkiloti Inson huquqlari bo‘yicha mustaqil doimiy komissiyasining «Tinchliksevar, demokratik jamiyatlar barpo etish va barqaror rivojlanish yo‘lida yoshlar huquqlarini rag‘batlantirish va himoya qilishning ahamiyati» mavzusidagi Yillik 6-seminar yig‘ilishi o‘tkazilganligini ta‘kidlashimiz lozim. O‘zbekiston Islom hamkorlik tashkilotiga a‘zo davlatlarni Musulmon Ummati foydasi uchun fan va texnologiyalarni rivojlantirish ishiga o‘z hissasini qo‘shishga chaqiradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

- [1] Алимova Н.М. Ислам в современных государствах Ближнего и Среднего Востока в условиях геополитической трансформации региона. Илмий тахлилий ахборот. – №3, 2014. – С.30.
- [2] Беккин Р.И. Исламские финансовые институты и инструменты в мусульманских и немусульманских странах: особенности и перспективы развития / Автореф. д-ра. эконом. наук. – М., 2009. – С.50.
- [3] Исполняющий обязанности Президента Республики Узбекистан Шавкат Мирзиёев заявил на церемонии открытия 43-й сессии Совета министров иностранных дел Организации исламского сотрудничества  
<http://uza.uz/oz/politics/18-10-2016>
- [4] <http://www.oic-oci.org/baku2006/english/documents>.

